



INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Imomova Muazzam Rafiqovna

University of Business and Sciens

nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: imamovmuazzam@gmail.com

Tel: +998 99 815 53 43

Annotatsiya. Individual yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlashning pedagogik muammo sifatida ilmiy–nazariy jihatdan asoslash, bolalarni maktabga tayyorlashda amaliyotdagi ahvolini o'rganish va amaliyotga talbiq etish maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, maktab, tarbiya, bola, ma'naviyat, bola, ta'lim, pedagog, faoliyat, o'yin, harakat, individual, mashg'ulot,

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratadi. Ta'lim sohasidagi asosiy natija bola tomonidan bilimlarni qay darajada o'zlashtirib olinganligi uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagog tomonidan tanlab olingan ta'lim uslublari intellektual jarayonlarning shakllanishiga muammolar yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka, mustaqillikka va mas'uliyatga, o'z faoliyatini boshqara olishga o'rgatishi lozim.

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.



Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning nomi, eng kam (minimal) hajmi va ularning yoshi bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi. Namunaviy o'quv reja maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga 2-ilovasida **«Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi» mazmuni ko'rsatib o'tildi.** Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining maqsadi — bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat.

Har qanday faoliyat ma'lum harakatlar ketma-ketligi shaklida amalga oshadi. Harakat - ongli maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan faollik, faoliyatning asosiy tarkibiy birligidir. U sharoitga bog'liq ravishda turli usullar bilan amalga oshiriladi. Harakatni amalga oshirish usullari operatsiyalar deb ataladi. Operatsiyalar - avtomatlashgan, odatda aniqlanmaydigan harakatlardir. Faoliyat o'z motivini yuqotish va hapakatra aylanishi, harakat esa maqsadi o'zgarishi bilan operatsiyaga aylanishi mumkin. Muayyan sharoitda harakatdan ko'zlangan maqsad butun faoliyat maqsadidan muhimroq ahamiyat kasb etishi va natijada maqsad motivga aylanib qolishi kuzatiladi.

Faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faol inson ongi shakllanishining sharti va omili ong faolligining shaklidir. A.N.Leontev o'z izlanishlarida faoliyatning bola taraqqiyotiga ta'siri muammosini ham chuqur o'rgangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida «yetakchi faoliyat» tushunchasi shakllandi. Yetakchi faoliyat deganda taraqqiyotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o'zgarishlarga sabab bo'luvchi faoliyat tushuniladi. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o'yin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yetakchi faoliyat turi o'zgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadining motivga aylanishi, A.N. Leontev ta'biri bilan aytganda «motivning maqsadga ko'chishi» kuzatiladi. Yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo bo'lgach, vujudga keladi. A.N.Leontev fikricha shaxs ikki marta tug'iladi.

Zaruriy faoliyatning barcha turlarini yanada takomillashtirish va shu asosda qimmatli ma'naviy sifatlar: mustaqillik, uyushganlik, jamoatchilikni shakllantirish, maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Faoliyatga qatnashish maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini shakllantiradi. Tarbiyachining rahbarligi faoliyat mazmunini va uni amalga oshirish usullarini yanada boyitishga, faoliyatni birgalikda rejalashtirish, faoliyat jarayonida hamkorlik



hissi, umumiy intilishlar bilan ma'lum natijalarga erishish xulosalarini shakllantirishga yo'llangan bo'ladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechilmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

a) taassurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi. Maktabgacha yosh davrida harakatining o'sishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish



vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadra aylanadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay balki bolaning xulq-atvoriga xam ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maksadra yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaparanda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. YUqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning maktab ta'limiga maxsus tayyorgarligi mehnatda o'qishga umumiy, psixologik tayyorgarligiga qo'shimchadir. U bolalarda matematika, ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganishi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish, o'qish va savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabdqi, o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktab ta'limiga bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi tayyorgarlik ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalari tushunchasi bog'liq bo'ladi. Maktab ta'limiga tayyorlik – Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) va oilada maktabgacha yoshdagi bolaga berilgan ta'lim va tarbiyaning muhim yakunidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim bo'lgan yangi vazifalar va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat tizimining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq, endi ta'lim majburiy bo'ladi va 1-sinf o'quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi.

Ta'lim faoliyatining etakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin o'yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomligiga talablar jiddiy



ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z hatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy mas'uliyati ancha-muncha ortadi.

O'quvchining yangi holati shaxsining alohida ma'naviy yo'llanganligini yaratadi. Bola o'qishni butun milla, mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida anglay boshlaydi.

Mustaqillik davrining o'ziga xos xususiyati maktab ta'limi mazmuni doimo takomillashtirib borishidir. Zamonaviy maktab 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki ilgarigi yillarga nisbatan aqliy faoliyatining murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z hatti-harakatini boshqarish qobiliyatini talab qiladi. MTTning vazifasi ta'lim-tarbiyaviy ishning butun tizimi bilan bolalarda zamonaviy maktab ta'limi o'qishga to'laroq muvofiq keluvchi maktabga o'qishga tayyorlikni tarkib toptirishdir.

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotsi va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotsi va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning asosiy negizi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotsi va maktabdagi ta'lim-tarbiya vazifa, shakl hamda ' metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi.

Demak, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni asosini tashkil etadi. Biz ushbu kichik maqolamizda bola shaxsini shakllanishida maktab ta'limini ahamiyati, o'quv jarayonini boshqarish va bu boradagi tarbiyachi va bola o'rtasidagi munosabat psixologiyasini yoritib berishga harakat qildik.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2007 y. -39 b. . <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son
3. Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr. (*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son*).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1059-sonli Qaroriga 1-ilova.
5. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.* <https://lex.uz/docs/4646908>.
6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.
7. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** 2020 yil 22 dekabr. «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 802-sonli Qarori. "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga 1-ilova.
8. **Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabr. «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 802-sonli Qaroriga 1-ilova.
9. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018 yil.
10. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: "Tafakkur". 2019 y -684 b.
11. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. – T.: TDPU, 2017 y.
12. Oila pedagogikasi. Mas'ul muharrir O.Hasanboeva. –T.: Aloqachi. 2007 y. -384 b.



13. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: -“Fan va texnologiya”, 2012 y. -268 b.

14. Otavaliyeva O‘. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. – T.: O‘qituvchi, 1994, -72 b.

15. SHaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta‘lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo‘llanma. A.V.SHin, SH.SH.Mirziyoeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.

16. O‘yin orqali ta‘lim olish. Metodik qo‘llanma. I.V.Grosheva va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.

17. Bolangiz maktabga tayyormi? Nashr uchun mas‘ul: R.Axliddinov. –T.: “Ma‘rifat-Madadkor”, 2000 y, -320 b.

18. Asqarova D. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Nanangan-2021 y

INTERNET SAYTLARI:

1. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
2. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
3. [http: www.edu.uz](http://www.edu.uz).
4. [http: //ru/wikipedia.jrg/wiki/Методы_обучения](http://ru/wikipedia.jrg/wiki/Методы_обучения).